

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI  
JIZZAX DAVLAT PEDAGGIKA UNIVERSITETI

“Tasdiqlayman”  
Jizzax davlat pedagogika universiteti  
rektori Sh. S. Sharipov

2022 yil “ ”

**JISMONIY TARBIYA TARIXI**

**FANINING O'QUV DASTURI**

**Bilim sohasi:** 100000 – Ta'lim  
**Ta'lim sohasi:** 110000 – Ta'lim  
**Ta'lim yo'nalishi:** 60112200-Jismoniy madaniyat

Jizzax - 2022



Fan/Modul kodi 35LJMTSB02	O'quv yili 2022-2023	Semestr 2	Kreditlar 2
Fan/Modul kodi Majburiy	Ta'lim tili Q'zbek	Haftadagi dars soatlari 4	
Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
1	Ma'ruza-10 Amaliy-10 Seminar-10 Jami-30	60	90
2	<p><b>Fanning mazmuni</b></p> <p><b>Fanni o'qitishdan maqsad</b> – bo'lajak kadrlarga jismoniy madaniyat tarixi bo'yicha atroflicha va chuqur kasbiy bilimlar berish orqali, kelajakdagi ish faoliyatlarida kasbiy-amaliy ahamiyat kasb etuvchi jismoniy madaniyat bo'yicha kasbiy bilimlar, ko'nikma va malakalarga ega qilish qatorida pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalana olish kabi amaliy ko'nikmalar bilan qurollantirishni ko'zda tutadi.</p> <p><b>Fanning vazifasi</b> – talabalarga ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya jarayonini tizimli tashkil etish va boshqarish hamda jamiyatning ijtimoiy qatlamlari orasida sog'lom turmush madaniyatini targ'ib qilish va keng ommalashtirish kabi bilimlarini shakllanishini o'rganishga ko'maklashadi.</p> <p><b>I. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) (10-soat)</b></p> <p><b>I.1. Fanning tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</b></p> <p><b>1-mavzu. Jismoniy tarbiya tarixi fanining maqsad va vazifalari. (2 soat)</b></p> <p>Jismoniy tarbiya tarixi fanining maqsadi va vazifalarini tushuntirish va fanning umumiy mazmuni, uning rivojlanish bosqichlari, davrlari haqida nazariy ma'lumotlarga ega qilish, jismoniy tarbiyaning tarixiy hususiyatlari, jismoniy tarbiyaning yuzaga kelishi va rivojlanishi sabablari haqida nazariy ma'lumotlarga ega qilish.</p> <p><b>2-mavzu. Qadimgi dunyo xalqlarining jismoniy tarbiyasi. (2 soat)</b></p> <p>Qadimgi dunyo xalqlarining jismoniy tarbiyasi, materixat (onalik) urug'chilik davrida jismoniy tarbiyaning rivojlanish hususiyatlari, Patriarxat (otalik) urug'chilik davrlarida jismoniy tarbiya hususiyatlari va jismoniy mashqlar haqida nazariy ma'lumotlarga ega qilish.</p> <p><b>3-mavzu. Qadimgi Yunoniston va Rimda jismoniy tarbiyaning rivojlanish hususiyatlari. (2 soat)</b></p> <p>Urug'chilik davrining yemirilishi va quldorlik munosabatlarining paydo bo'lishi davrida qadimgi Yunonistonda jismoniy tarbiya, Sparta tizimi, Afina tizimi haqida umumiy tushunchalar, qadimgi olimpiya o'yinlarini paydo bo'lishi haqida nazariy ma'lumotlarga ega qilish.</p>		

<p><b>4-mavzu. Sportni taraqqiy etishi va halqaro sport uyushmalarining vujudga kelishi. (2 soat)</b></p> <p>Halqaro olimpiya harakatining vujudga kelishi, sport va sport o'yinlarining yangi burjua ideology Jorj demeni 1880 yili o'spirinlar va qizlar uchun maqsadga muvofiq gimnastika klub tashkil qilinishi, XIX asrning 70 yillarigacha vujudga kelgan gimnastika tizimi, halqaro olimpiya qo'mitasining faoliyati, sportning yanada taraqqiy etishi, olimpiya prezidentlari, olimpiya xartiyasi, olimpiya ramzlari haqida nazariy ma'lumotlarga ega qilish.</p> <p><b>5-mavzu. O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportning rivojlanishi. (2 soat)</b></p> <p>Markaziy Osiyoga jismoniy tarbiyani rivojlanish xususiyati, Miloddan oldingi IX-VI asrlarda Markaziy Osiyoda jismoniy tarbiya, mustaqillik yillarida va hozirgi kunda jismoniy tarbiya va sportning rivojlanishi haqida nazariy ma'lumotlarga ega qilish.</p>	<p><b>II. Amaliy, seminar mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.</b></p> <p><b>Amaliy mashg'ulot</b> - darsi uchun zarur ko'rsatmali va tarqatmali materiallarni oldindan tayyorlab qo'yishi zarur. Amaliy mashg'ulotda ko'proq talabalar bilan guruhni bir nechta kichik guruhlarga ajratib o'qitishning yangi innovasion pedagogik texnologiyalar yordamida va metodlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bunday pedagogik texnologiya va metodlar talabalarni mavzu yuzasidan ko'proq mustaqil fikr yuritishga, o'z fikrini bayon etishga undaydi. Darsga bo'lgan qiziqishlarini oshirib, diqqatlarini jamlashga o'rgatadi.</p> <p>Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada hamda sport maydonlarida har bir akademik guruhga alohida o'tiladi. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi nazarda tutiladi. Amaliy mashg'ulot darslarini dastur bo'yicha sifatli o'tilishini talabalar bilimining o'z vaqtida adolatli va xolisona baholanishini fandan amaliy mashg'ulotni olib boruvchi o'qituvchi muntazam nazorat qilib borishi lozim.</p> <p><b>Seminar mashg'uloti</b> - oliy ta'lim muassasi talabalarining muayyan nazariy kursni qanchalik o'zlashtirganliklarini aniqlash usuli, mutaxassislar tayyorlashga yo'naltirilgan o'quv amaliyotining muhim turlaridan biri. Talaba tomonidan bajarilgan mashg'ulotning muhokamasidan iborat. Seminar, albatta, mavzuni ilmiy tadqiq etgan professor o'qituvchi yoki tegishli mutaxassislar rahbarligida amalga oshiriladi. O'quv predmeti harakteri, mashg'ulot maqsadi, o'quv yurti yo'nalishiga ko'ra ayrim o'ziga</p>
---	---



xosliklar bilan universitet, institut hamda xalq xo'jaligi sohalarida keng tarqalgan. Ba'zan ma'ruzaga bog'liq bo'lmagan holda, muayyan mavzudagi mustaqil ta'lim shakli sifatida ham o'tkaziladi.

Seminar mashg'uloti muayyan predmetni chuqur o'rganishga yo'naltiriladi.

Seminar mashg'ulotlari davomida talaba (o'quvchi)lar ilmiy ish yuritish tajribasi, o'z xulosalarini og'zaki va yozma ravishda ifodalay olish hamda muqta nazarlarini asosli himoyalash malakasiga ega bo'ladi.

#### **Seminar mashg'ulotlari 3 turda tashkil qilinadi:**

- a) Muayyan kursni chuqurlashtirib o'rganishga yo'naltiriladi;
- b) Kurs doirasida asosiy va muhim hisoblangan mavzulami o'rganishga qaratiladi.
- s) Ilmiy izlanishga yo'naltirilgan, ma'ruza mavzusiga aloqador bo'lgan topshiriqlar beriladi.

Seminar mashg'uloti o'tkazishning asosiy shartlaridan biri barcha ishtirokchilar uchun mavzu yoki mutaxassislikka bog'liq adabiyotlar, manbalar, arxiv materiallari va qo'lyozmalardan foydalanishda birdek imkoniyat yaratiladi.

Seminar mavzusini qiziqishlariga ko'ra, talaba (o'quvchi)larning o'zlari tanlashlari mumkin.

Seminar mashg'ulotlarining mahsuli, odatda, referat bo'ladi. Referatlar mashg'ulot davomida tinglanadi va muhokama etiladi. Referatlar mavzuga mos kelishi, metodologik asosi to'g'ri bo'lishi, mantiqan izchil va aniq ifodalanishi, ilmiy xulosalar asosli hamda amaliyotga aloqador bo'lishi kerak. Muhokama jarayonini fikr almashuv tarzida, barcha savollarga javob topa olish imkonini beradigan darajada tashkil etish seminar rahbarining asosiy vazifasi bo'lishi kerak. Seminar darslarida talabalar turli savollar bilan uning tayyorgarlik darajasini sinovdan o'tkazadilar.

#### **III.1. Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi. (10 soat)**

##### **Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:**

Amaliy mashg'ulotlarida talabalar Jismoniy madaniyat tarixi va sportni boshqarish fanidan ma'ruza darslarida olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash bilan birga, seminarlar mavzulari bo'yicha tayyorgarlik ko'rish jarayonida qo'shimcha adabiyotlar va manbalar bilan tanishish orqali qo'shimcha bilim

oladilar. Natijada, ularning bilim doiralari ilmiy jihatdan asoslangan holda kengayadi.

#### **Jismoniy madaniyat tarixi va sportni boshqarish fani bo'yicha amaliy mashg'ulotlarining tavsiya etiladigan mavzulari(10 soat)**

1-mavzu. Qadimgi dunyo xalqlarining jismoniy tarbiyasi. (2 soat)  
2-mavzu. Qadimgi Yunoniston va Rimda jismoniy tarbiya. qadimgi olimpiya o'yinlari.

(2 soat)

3-mavzu. Halqaro olimpiya qo'mitasining tashkil topishi. Halqaro sport harakatining rivojlanishi. (2 soat)

4-mavzu. O'rtta asrlarda jismoniy tarbiya. Ilk taraqqiy va taraqqiy etgan fyodalizm davrida jismoniy tarbiyani rivojlanishi. (2 soat)

5-mavzu. Markaziy Osiyoga jismoniy tarbiya va sportni kirib kelishi. (2 soat)

#### **III.2. Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi. (10 soat)**

1-mavzu. Jismoniy tarbiya tarixi fanining maqsad va vazifalari. (2 soat)

2-mavzu. Qadimgi dunyo xalqlarining jismoniy tarbiyasi. (2 soat)

3-mavzu. Qadimgi Yunonistonva Rimda jismoniy tarbiyaning rivojlanish xususiyatlari. (2 soat)

4-mavzu. Sportni taraqqiy etishi va halqaro sport uyushmalarining vujudga kelishi.

(2 soat)

5-mavzu. O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportning rivojlanishi.

(2 soat)

#### **II. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Talaba mustaqil ta'limni tayyorlashda muayyan fanning hususiyatlarini Talaba mustaqil ta'limni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlari hisobga olgan holda quyidagi shaklardan foydalanish tavsiya etiladi.

- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha mavzular ustida ishlash;
- talabaning o'quv, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularini chuqur o'rganish;
- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari;
- masofaviy ta'lim.



<p>5. O'rtta asrlarda Buyuk Britaniya, Germaniya, AQSh, Fransiya jismaniy tarbiyani rivojlanishi hamda sport turlari. (4 soat)</p> <p>6. Buyuk gumanistlar ta'limoti. (2 soat)</p> <p>7. Yangi va eng yangi davrlarda chet mamlakatlarda jismoniy tarbiya. (2 soat)</p> <p>8. Buyuk ajdodlarimiz jismoniy tarbiyaga fikirlari va uning tarbiyaviy ahamiyati. (4 soat)</p> <p>9. Xalqaro sport harakatining rivojlanishi va xalqaro olimpiya qo'mitasining tashkil topishi. (4 soat)</p> <p>10. O'zbekiston Respublikasida jismoniy madaniyat va sportning rivojlanishi. (4 soat)</p> <p>11. O'zbekiston hotin-qizlar jismoniy tarbiyasi haqida mulohazalar. (4 soat)</p> <p>12. O'zbek sportchilari xalqaro arenalarda. (4 soat)</p> <p>13. Sharq mamlakatlarida jismoniy tarbiya. (2 soat)</p> <p>14. Sosialistik mamlakatlarda jismoniy tarbiya va sport. (2 soat)</p> <p>15. Milliy olimpiya qo'mitasining tashkil topishi. (4 soat)</p> <p>16. O'zbekiston sportchilarining Osiyo, jahon va Olimpiya o'yinlaridagi ishtiroki. (4 soat)</p>	<p><b>3</b></p> <p><b>III. Ta'lim natijalari/Kasbiy kompetensiyalar</b></p> <p>Jismoniy tarbiya va sportni boshqarishning nazariy asoslari, Jismoniy tarbiya va sportni boshqarish tizimlari, O'zbekiston Respublikasi jismoniy tarbiya va sport vazirligi, jismoniy tarbiya va sportni boshqarishda ishtirok etuvchi davlat idoralari, O'zbekiston Respublikasi milliy olimpiya qo'mitasi, sport maktablari va markazlari faoliyatini tashkil qilish, aholi turar-joylarida ommaviy sog'lomlashtirish va xalq milliy o'yinlarini tashkil qilish, boshqarishning ijtimoiy-psixologik va pedagogik yo'nalishlari, boshqarishning huquqiy asoslari, boshqarishning jamoat tashkilotlari, xorijiy mamlakatlarda jismoniy tarbiya va sport ishlarini boshqarish; O'zbekiston Respublikasidagi jismoniy tarbiya tizimining umumiy tavsifi; O'zbekiston Respublikasi hukumatining jismoniy madaniyat va sport bo'yicha qabul qilgan hujjatlarining ahamiyati; jismoniy madaniyatning jamiyatdagi vazifalari va shakllari <b>haqida ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.</b></p> <p>- xalqaro sport harakatining rivojlanishi va xalqaro olimpiya qo'mitasining tashkil topishi; milliy olimpiya qo'mitasining tashkil topishi; O'zbekiston sportchilarining Osiyo, jahon va Olimpiya o'yinlaridagi ishtiroki; O'zbekiston Respublikasida jismoniy madaniyat va sportning rivojlanishi, - aholi turar joylarda ommaviy sog'lomlashtirish va milliy o'yinlarni tashkil qilish; bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida jismoniy tarbiya va sportning o'rni; jismoniy tarbiya - sport menedjmentini moliyaviy, tashkiliy va huquqiy asoslari; havaskor va</p>
--	---

<p><b>Mustaqil ta'limni tashkil etish shakllari va turlari</b></p> <p><b>Talabalarning mustaqil ta'limi quyidagi turlarda tashkil etilishi lozim:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- auditoriya mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rish;</li> <li>- auditoriyadan tashqari vaqtda mustaqil ish topshiriqlarini bajarish;</li> <li>- fan (modul) bo'yicha mavzularni mustaqil ravishda Axborot-resurs markazlari, (talabalar turar joylari)da o'qib-o'rganish.</li> </ul> <p><b>Auditoriya mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rish quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish;</li> <li>- seminar-konferensiyalarga tayyorgarlik ko'rish;</li> <li>- kollokviumlarga tayyorgarlik ko'rish;</li> <li>- ko'p so'raladigan savollar (FAQ-frequently asked questions) orqali o'zini qiziqirgan muammolarga o'rgatuvchi dasturlar vositasida javob izlash;</li> <li>- nazorat ishlari tayyorgarlik ko'rish;</li> <li>- imtihonga tayyorgarlik ko'rish.</li> </ul> <p><b>Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar quyidagi turlarda amalga oshirilishi tavsiya etiladi:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- dolzarb mavzu bo'yicha shaxsiy fikrini tanqid, publitistik va boshqa janrlar (masalan, esse)da yozma bayon qilish;</li> <li>- ma'ruzalarni tayyorlash;</li> <li>- kurs ishi yozish;</li> <li>- konspekt yozish;</li> <li>- glossariy tuzish;</li> <li>- individual va jamoaviy o'quv loyihasi tuzish;</li> <li>- keys-topshiriqlarini bajarish;</li> <li>- axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash;</li> <li>- manbalar bilan ishlash;</li> <li>- infografika tuzish;</li> <li>- multimediaali taqdimotlar yaratish;</li> <li>- darslarning metodik ishlanmalarini tayyorlash;</li> <li>- darsdan tashqari mashg'ulot ishlanmalarini tayyorlash;</li> </ul> <p><b>Mustaqil ta'lim olish ushuncha tavsiya etiladigan mavzular. (60 soat)</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Jismoniy madaniyat tarixi fanining maqsadi hamda vazifalari. (2 soat)</li> <li>2. Qadimgi dunyo xalqlarining jismoniy tarbiyasi. (6 soat)</li> <li>3. Qadimgi yunonistonda Gomer davrida jismoniy tarbiya. (6 soat)</li> <li>4. Qadimgi olimpiya o'yinlari. Qadimgi Rimda gladiatorlar maktabi. (6 soat)</li> </ol>
--



<p>professional sport; jismoniy tarbiya, sog'lomlamlashirish va sport ishlari, ommaviy tadbirlarni tashkil qilish va o'tkazish; O'zbekistonning xalqaro sport aloqalari <b>haqida matakalariga ega bo'lishi kerak.</b></p>	<p><b>4</b></p> <p><b>IV. Ta'lim texnologiyalari va metodlari</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Ma'ruzalar;</li> <li>• Interfaol keys-stadilar;</li> <li>• Seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);</li> <li>• Guruhlarda ishlash;</li> <li>• Taqdimotlarni qilish;</li> <li>• Individual loyihalar;</li> <li>• Jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.</li> </ul>
<p><b>5</b></p> <p><b>V. Kreditlarni olish uchun talablar</b></p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy nazorat, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishini topshirish.</p> <p><b>Joriy nazorat.</b>Joriy nazorat semestr davomida seminar mashg'ulotlariga ajratilgan soatlar (juflik) dan kelib chiqib umumiy 30 ball bilan baholanadi.</p> <p>Jami seminar mashg'ulotlari bo'yicha o'zlashtirish natijalari 100 ballik tizimda 30 ball bilan baholanadi.</p> <p><b>Oraliq nazoratlar.</b>Oraliq nazoratlar semestr davomida ma'ruza mashg'ulotlari o'quv soatidan kelib chiqqan holda2 marta (ma'ruza soatlari o'tilgandan so'ng) o'tkaziladi. Oraliq nazorat 100 ballik tizimda 20 ball bilan baholanadi. Oraliq nazorat ishi tarkibida mustaqil ta'lim topshirig'i kiradi.</p> <p>Oraliq va joriy nazorat uchun ajratilgan ballning 60% ini to'plagan talabalarga yakuniy nazorat topshirishga ruxsat beriladi.</p> <p><b>Yakuniy nazorat.</b> Yakuniy nazorat yozma yoki test shaklida o'tkaziladi. Talabning yakuniy nazoratdagi o'zlashtirishi 100 ballik tizimda 50 ball bilan baholanadi va yakuniy nazorat uchun ajratilgan ballning 60% ini to'plagan talabalar fanni o'zlashtirgan hisoblanadi.</p>	<p><b>6</b></p> <p><b>Asosiy adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Yarashev K.D.Jizmoniy tarbiya va sportni boshqarish.T.:Ibn Sino .2000 yil</li> <li>2. Akromov A.K.O'zbekistonda jismoniy madaniyat va sport tarixi. Toshkent.O'zDJTI nashri.1997y.</li> <li>3. Axmatov M.S.Uzluksiz ta'lim tizimida ommaviy sport so'g'lamlashirish ishlarini samarali boshqarish.T.:2005 yil</li> <li>4. Eshnazarov J.Jismoniy tarbiya tarixi va boshqarish.-T.:Darslik 2008 yil</li> </ol>

<p>Toshkent.1984.y.</p> <p>5. Jismoniy tarbiya va sportni boshqarishning nazariy asoslari. Toshkent – 1995 yil.</p> <p>6.To'xtamirzayev M, Turdiyev F, Rasulova M. Olimp sari.-T.: Oquv qo'llanma. 2017 yil.</p> <p><b>Qo'shimcha adabiyotlar:</b></p>	<p>1.2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiasi to'g'risida. O'zbekistonRespublikasi Prezidentining Farmoni.</p> <p>2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni.2020 yil 23 sentyabr.</p> <p>3. O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi qonuni. O' RQ-394-son 04.09.2015yil.</p> <p>4.AbdullaevA, XonkeldievSh.X. "Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi" o'quv qo'llanma T.: O'zDJTI nashriyoti 2005 y.</p> <p>5. MahkamdjanovK.M, TulenovaX.B. "Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi" o'quv qo'llanmaT.: TDPU nashriyoti 2001-2002 y.</p> <p><b>Internet saytlari:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. <a href="http://www.ziyounet.uz">www.ziyounet.uz</a>.</li> <li>2. <a href="http://www.edu.uz">www.edu.uz</a>.</li> <li>3. <a href="http://www.google.uz">www.google.uz</a>.</li> <li>4. <a href="http://www.gov.uz">www.gov.uz</a>.</li> <li>5. <a href="https://www.sciencedirect.com">https://www.sciencedirect.com</a></li> </ol>
<p><b>7</b></p>	<p>Jismoniy madaniyat tarixi va sportni boshqarish fanining o'quv fan dasturiJizzax davlat pedagogika universiteti kengashining2022 yil " _____dagi " _____"-sonli Kengash qarori bilan tasdiqlangan</p>
<p><b>8</b></p>	<p><b>Fan/modul uchun ma'sullar: Bo'riboev A.Yu.- JDPI, Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi kafedrası katta o'qituvchisi</b></p>
<p><b>9</b></p>	<p><b>Taqrizchilar:prof.Axmedov F.Q.- JDPI, Jismoniy madaniyat fakulteti dekani. Dots.A.Abdulaxatov-Toshkent viloyati Chirchiq DPI kafedra mudiri.</b></p>